QORAQALPOG'ISTON TELEKANALLARI BOSHLOVCHILARINING DISKURSIV KOMPETENSIYASI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK USULLARI

Alimbetova Shaxzada Jumabay qízí
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti 3-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog'istondagi beshta hududiy telekanal axborot dasturlarida boshlovchilarning diskursiv kompetensiyasi tahlil qilinadi. Axborotning mantiqiy izchilligi, mazmuniy yaxlitligi va auditoriyaga tushunarli yetkazilishi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: diskursiv kompetensiya, televideniye, teleboshlovchi, axborot dasturlari, hududiy telekanallar.

Аннотация. В статье анализируется дискурсивная компетенция ведущих информационных программ пяти региональных телеканалов Каракалпакстана. Рассматриваются логическая последовательность, смысловая целостность и доступность подачи информации аудитории.

Ключевые слова: дискурсивная компетенция, телевидение, телеведущий, информационные программы, региональные телеканалы.

Abstract. The article examines the discursive competence of presenters on five regional television channels in Karakalpakstan. It focuses on the logical coherence, semantic unity, and audience-oriented presentation of news.

Keywords: discursive competence, television, TV presenter, news programs, regional television channels.

Bugungi axborot makonida televideniye aholiga tezkor va ishonchli ma'lumot yetkazuvchi muhim ommaviy kommunikatsiya vositalaridan biri hisoblanadi. Televideniye boshlovchisining kasbiy mahorati nafaqat axborotni to'g'ri bayon etishi, balki uning mazmunini mantiqiy izchillikda tashkil qilishi, nutq va tasvir uyg'unligini ta'minlashi hamda auditoriyaga tushunarli tarzda yetkazishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan diskursiv kompetensiya axborot ko'rsatuvlari sifatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning nazariy asosini Teun A. van Dijkning [1] diskurs nazariyasiga oid qarashlari tashkil etadi. Olim diskursning mazmuniy yaxlitligi, matn qismlari o'rtasidagi semantik aloqalar hamda diskursni anglashda kontekstning ahamiyatini yoritgan. Mazkur nazariy qarashlarga tayangan holda, tadqiqotda hududiy telekanallar axborot dasturlarining ssenariy tuzilishi, nutq va tasvir uyg'unligi, janriy izchilligi hamda axborotni auditoriyaga yetkazish xususiyatlari tahlil qilindi.

Qoraqalpog‘iston hududiy telekanallarining axborot dasturlarida diskursiv kompetensiyaning namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish boshlovchilar nutqining izchilligi, audiovizual vositalarning uyg‘unligi, janriy-dramaturgik tuzilish hamda axborotni eshitib qabul qilish qulayligini aniqlash imkonini beradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi “Qaraqalpaqstan”, “ATV”, “ETV”, “TTV” va “Jaslar TV” telekanallari axborot ko‘rsatuvlarini diskursiv kompetensiya mezonlari asosida tahlil qilish hamda ularning efir amaliyotidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot T. A. van Dijkning diskurs nazariyasiga oid qarashlari asosida tashkil etildi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan diskurs koherensiyasi va kontekstga doir nazariy yondashuvlar tadqiqotning konseptual asosini belgiladi. Tahlil uchun esa muallif tomonidan belgilangan to‘rtta mezon: ssenariy koherensiyasi va kogeziyasi, audiovizual koherensiya, janr-dramaturgik izchillik, tempo-ritm va eshitib qabul qilish aniqligi qo‘llanildi.

Tadqiqot “Qaraqalpaqstan”, “ATV”, “ETV”, “TTV” va “Jaslar TV” telekanallarining axborot ko‘rsatuvlari materiallari asosida olib borildi. Tahlilda diskursiv kompetensiyaning namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash uchun ssenariy koherensiyasi va kogeziyasi, audiovizual koherensiya, janr-dramaturgik izchillik, tempo-ritm hamda eshitib qabul qilish aniqligi mezonlari qo‘llanildi. Materiallar qiyosiy tahlil va kontent-tahlil usullari yordamida o‘rganilib, axborotning mantiqiy tuzilishi, tasvir va nutq uyg‘unligi, janriy qurilishi hamda auditoriyaga yetkazilish xususiyatlari baholandi.

Tahlil va natijalar

Ssenariy koherensiyasi va kogeziyasi televideniye axborot dasturlarida materiallarning mantiqiy izchilligi, mazmuniy yaxlitligi hamda axborot qismlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlovchi muhim mezonlar hisoblanadi. Tadqiqot doirasida “Qaraqalpaqstan”, “ATV”, “ETV”, “TTV” va “Jaslar TV” telekanallarining axborot ko‘rsatuvlari ushbu mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, “ATV” telekanalining “Yangiliklar” ko‘rsatuvi 2025-yil 21-martdagi sonida hamda “ETV” telekanalining “Yangiliklar” dasturi 2026-yil 10-iyundagi sonida ssenariy koherensiyasi va kogeziyasi talablariga rioya qilinganligi kuzatildi. Shuningdek, “TTV” telekanalining “TTV Yangiliklari” ko‘rsatuvi 2026-yil 25-fevraldagi sonida ham mazkur mezonlar to‘g‘ri qo‘llangan. “Qaraqalpaqstan” telekanalining 2026-yil 22-sentabrdagi axborot ko‘rsatuvida esa boshlovchi Sayatxan Jumanazarova taqdim etgan materiallar, jumladan, reportajda ssenariy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlik va nutq bilan tasvir uyg‘unligi namoyon bo‘lgan.

Biroq "Jaslar TV" telekanalining "Qaraqalpaqstan online" ko'rsatuvi 2026-yil 19-avgustdagi sonida ssenariy koherensiyasi va kogeziyasi yetarli darajada saqlanmagan. Shu bilan birga, mazkur ko'rsatuvda audiovizual koherensiya kuzatilgan. Bu holat axborotning mazmuniy izchilligi va tasvir bilan uyg'unligi alohida tahlil mezonlari ekanini ko'rsatadi.

Janr-dramaturgik izchillik va tempo-ritm ko'rsatkichlari tahlili hududiy telekanallar axborot dasturlarida materiallarning janriy tuzilishi hamda boshlovchilar nutqining auditoriya tomonidan qabul qilinish xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. "ATV" telekanalining "Yangiliklar" ko'rsatuvi 2025-yil 21-martdagi sonida janr-dramaturgik izchillik saqlangan. Biroq reportaj yakunida tempo-ritmning buzilishi va hisobot uslubiga xos ayrim nutqiy parchalar aniqlangan.

"Qaraqalpaqstan" telekanalining "Xabar" ko'rsatuvi 2026-yil 22-sentabrdagi sonida janr-dramaturgik izchillik bilan bir qatorda boshlovchi nutqining akustik xususiyatlari, jumladan, tempi, tembri va ritmi vizual kadrlar bilan uyg'unlashgan. Natijada nutq va tasvir o'zaro muvofiqlashib, yaxlit audiovizual ifoda hosil qilgan. "ETV" telekanalining "Yangiliklar" dasturi 2026-yil 10-iyundagi sonida ham janr-dramaturgik izchillik kuzatilgan, biroq tempo-ritmning ayrim jihatlarida kamchiliklar qayd etilgan.

"Jaslar TV" telekanalining "Qaraqalpaqstan online" ko'rsatuvi 2026-yil 19-avgustdagi sonida janr-dramaturgik izchillik saqlangan bo'lsa-da, boshlovchining nutq tezligi bilan bog'liq muammo aniqlangan. Tahlil davomida boshlovchining nutq tezligi bir daqiqada 148 so'zni tashkil etgani hisoblab chiqildi. "TTV" telekanalining "TTV Yangiliklari" ko'rsatuvi 2026-yil 25-fevraldagi sonida ham janr-dramaturgik izchillik saqlangan, biroq boshlovchining nutq tezligi bir daqiqada 140 so'zga teng bo'lgan. Ushbu holat nutq tezligi va axborot zichligining auditoriya tomonidan ma'lumotni idrok etishiga ta'sir qilishini ko'rsatadi [2]. Shu nuqtayi nazardan, "Jaslar TV" va "TTV" telekanallarida aniqlangan yuqoriroq nutq tezligi axborotning tushunarli yetkazilishi, pauzalarning o'rinli qo'llanishi va auditoriyaning mazmunni qay darajada o'zlashtirishi bilan bog'liq holda baholanishi lozim.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, o'rganilgan ko'rsatuvlarning barchasida janr-dramaturgik izchillik saqlangan. Biroq tempo-ritm ko'rsatkichi barcha dasturlarda bir xil darajada namoyon bo'lmagan.

Xulosa

Tadqiqot natijalari "Qaraqalpaqstan", "ATV", "ETV", "TTV" va "Jaslar TV" telekanallari axborot dasturlarida boshlovchilarning diskursiv kompetensiyasi turlicha namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Tahlil jarayonida ssenariy koherensiyasi va kogeziyasi, audiovizual uyg'unlik hamda janr-dramaturgik izchillikning aksariyat ko'rsatuvlarda

saqlangani, biroq ayrim dasturlarda nutq tempi va ritmi bilan bog‘liq kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Natijalar teleboshlovchilarning nutq mahoratini takomillashtirish, axborotni mantiqiy izchillikda va auditoriyaga tushunarli tarzda yetkazish hamda audiovizual vositalardan samarali foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Diskursiv kompetensiyani rivojlantirish hududiy telekanallar axborot dasturlarining kommunikativ sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Van Dijk, T. A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
2. Rodero, E. Influence of Speech Rate and Information Density on Recognition: The Moderate Dynamic Mechanism // Media Psychology. – 2016. – Vol. 19, No. 2. – P. 224–242. – DOI: https://doi.org/10.1080/15213269.2014.1002942.
3. “ATV” telekanalı. “Yangiliklar” ko‘rsatuvi. 21.03.2025-yilgi soni. URL: https://youtu.be/LGcIIPLaHPk?si=Vinj70FKzQIQ0xNI. Murojaat sanasi: 10.11.2025.
4. “ETV” telekanalı. “Yangiliklar” dasturi. 10.06.2026-yilgi soni. URL: https://youtu.be/a9o7_5AhJyY. Murojaat sanasi: 24.09.2026.